

---

## IJTIMOYIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT



***Joriy yil 30 sentyabr kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali tanqidiy murojaat e'lon qilindi.***

Murojaatda: - **“Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani Baland masjid mahallasidan yozmoqdamiz. Bizni aldab yo’limizni o’rab olishdi. Endi esa ko’chamiz darvozasini berkitib qo’yishdi. Aholi foydalanadigan yo’lda so’roqsiz uy qurilgan. Mutasaddilardan hujjatlarni tekshirib, aholi yo’lini ochib berishlarini so’raymiz”** - deya shikoyat qilingan.

Ushbu tanqidiy murojaat Qo’shtepa tumani hokimligi qishloq xo’jaligi bo’limi mutaxassislari tomonidan o’rganilib, quyidagicha izoh berildi.

“Murojaatda tilga olingan joy Balandmasjid mahalla fuqarolar yig’ini hududida joylashgan bog’dorchilik yo’nalishidagi “Axmadjon xoji ota” nomli fermer xo’jaligining yer maydonlari bo’lib, bog’dagi mevali ko’chatlarni muhofaza qilish uchun atrofi o’ralgan va darvoza qo’yilgan.

Fermer xo’jaligiga ajratilgan yer maydonining chekka qismida yo’l mavjudligini ma'lum qilamiz.”

**Qo’shtepa tumani hokimligi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook,](#)

2021-10-02 19:52:34